

## BOLALAR SEREBRAL FALAJI

Fayzullayeva Sitora

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Maxsus pedagogika:logopediya yunalishi talabasi*

*Telefon:+998915667254*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada bolalar kassaliklaridan biri bolalar serebral falaji ularning tasnifi, kelib chiqish sabablari, uning tarixi sabab bo'ladigan belgilar haqida bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *bolalar serebral falaji, diskoordinatsiya tug'ruq jarayoni, rezus konflikt, homila nefropiya, chaqaloq asfiksiyasi, gemolitik kasalliklar, bolalar kasalliklari.*

**Аннотация:** в данной статье описан один из детских случаев детского церебрального паралича, его классификация, причины возникновения и признаки его анамнеза.

**Ключевые слова:** детский церебральный паралич, дискоординация в родах, резус-конфликт, нефропатия плода, детская асфиксия, гемолитические болезни, детские болезни.

**Annotation:** *in this article, one of the children's cases of cerebral palsy, its classification, causes of origin, and signs of its history are described.*

**Key words:** *children's cerebral palsy, dyscoordination in childbirth, rhesus conflict, fetal nephropathy, infant asphyxia, hemolytic diseases, children's diseases*

Inson o'zining butun umri davomida o'zgarib turadi. Bu o'zgarish turli shaklda, mazmunda, ko'rinishda bo'lishi mumkin. Chuqur, keng o'zgarishlar bolalik davrida yuz beradi. Bu davrda shaxsning jismoniy, ma'naviy sifatlari samarali ravishda rivojlanadi. Insonning ruhiy, jismoniy rivojlanishi qonuniy jarayon bo'lib, shaxsning turli faoliyat jarayonlarida shakllanadi. Bolalar va o'smirlaming rivojlanishi o'z ichiga ham jismoniyholatlami, ham ruhiy jarayonlami oladi. Inson biologik mavjudot bo'lganligi sababli tabiatning qonunlari unga ham taalluqlidir. Ammo, bu qonunlar boshqa jonli mavjudotlardan ko'ra insonga boshqacharoq ta'sir etadi. Boshqa jonli mavjudotlar tashqi muhitga moslashib, o'zlarining hayot kcchirishlari uchun tayyor narsalardan foydalansa, inson jamiyatda yashar ckan, kerakli narsalarni o'zi ishlab chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldaggi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi

bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohibda ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qaror qabul qilingan[1]. Ushbu qarorlarning barchasi mana shunday maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun qabul qilinmoqda. Negaki, maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun alohifa e'tibor, alohida tarbiya kerak bo'ladi. Bolalardagi nuqsonlar juda ko'p bo'lib, ulardan biri "Bolalar serebral falajidir(DSP)".

Bolalar serebral falaji (DSP) – perinatal davrda bosh miyaning turli xil strukturalarida bo'ladigan o'zgarishlar natijasida kelib chiqadigan harakat doirasidagi patologiyalar bilan kechadigan umumiy tushunchadir. Bolalar serebral paralichi mono-, gemi-, para-, tetraparalich va parezlar, mushak tonusidagi patologiyalar, giperkinez, nutqdagi kamchiliklar, harakat koordinatsiyasi buzilishi, bolaning motorik va ruhiy jihatdan rivojlanishdan ortda qolishi bilan kechadi. BSF (DSP) da aqliy zaiflik, psixologik o'zgarishlar, epilepsiya, eshituv va ko'rish qobiliyatidagi o'zgarishlar ham rivojlanishi mumkin. Kasallik anamnez va klinik belgilarga asoslangan holda tashxislanadi. DSP bilan kasallangan bolalar butun umri davomida realibilitatsion markazlarda davolanishlari, medikomentoz muolajalar olishi, talab etilsa, jarrohlik amaliyoti bajarilishi lozim bo'ladi. Butun jahon miqyosida DSP kasalligi har 1000 ta bolaning 1,7-7 tasida kuzatiladi. Chala tug'ilgan bolalarda bu ko'rsatkich 10 barobar yuqori bo'ladi. So'ngi izlanishlarda chala tug'ilgan bolalarning 40-50 % ida ushbu patologiya kuzatilishi o'rganilgan. Pediatriya sohasida bolalar serebral falaji kasalligi yetakchi muammolar qatorida turadi. Bunga sabab ekologiyaning yomonlashuvi, neonatologiya sohasining rivojlanishi, chala tug'ilgan bolalarning yashab qolishi (hatto 500 gr tug'ilgan bolalar ham yashab qolishmoqda) kasallikning keng tarqalishi va dolzarb mavzu ekanligini anglatadi. Hozirgi kunda DSP rivojlanishi sababi sifatida bosh miyaning turli xil omillar ta'sirida zararlanishi, miyaning ma'lum bir sohalarida nerv hujayralarining noto'g'ri shakllanishi yoki nobud bo'lishini keltirish mumkin. Ushbu omillarning ta'siri perinatal davrda yoki bola dunyoga kelganidan so'ng qisqa muddatlarda (4 haftagacha) ta'sir etishi kasallik rivojlanish ehtimolini oshirib yuboradi. DSP rivojlanishining eng asosiy omili – bu gipoksiyadir. Gipoksiya ta'sirida bosh miyaning aynan harakat va koordinatsiyaga javob beradigan markazlari birinchilardan bo'lib zararlanadi. Buning natijasida bolalarda DSP belgilari – mushak tonuslari patologiyasi, parez va paralichlar paydo bo'ladi.

***Homiladorlik vaqtida DSP rivojlanishiga olib keluvchi omillar quyidagilar:***

- 1.Fetoplasentar yetishmovchilik;
- 2.Yo‘ldoshning erta ko‘chishi;
- 3.Homiladorlar nefropatiyasi;
- 4.Homiladorlik infeksiyalari (sitomegalovirus, qizilcha, toksoplazmoz, gerpes, sifilis);
- 5.Rezus konflikt;
- 6.Homilador ayol somatik kasalliklari (qandli diabet, gipotireoz, yurak tug‘ma va orttirilgan nuqsonlari, arterial gipertenziya);
- 7.Homiladorlik vaqtida ayolning turli xil travma olishlari.

***Tug‘ruq vaqtida bolada DSP rivojlanishiga olib keluvchi omillar:***

- 1.Homilaning chanoq bilan kelishi;
2. Muddatidan oldingi tug‘ruq;
- 3.Kuchli tug‘ruq jarayoni;
- 4.Diskoordinatsiyalangan tug‘ruq jarayoni.

**Tug‘ruqdan keyin bolada DSP rivojlanishiga olib keluvchi omillar:**

- 1.Chaqaloqlar asfiksiyasi (aspiratsiya natijasida);
- 2.Gemolitik kasallik;
- 3.O‘pkalardagi tug‘ma nuqsonlar;
- 4.Ona va bola qoni bir biriga to‘g‘ri kelmasligi natijasida bosh miyaning toksik zaharlanishi. Bolalar serebral falaji belgilari

Bolalar serebral falaji turli xil ko‘rinishda va turlicha og‘irlilik darajasida kechadi. Kasallikning klinik belgilari bosh miya strukturasining zararlangan sohasi va chuqurlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Ba’zida bolalar serebral falaji belgilari bola dunyoga kelishi bilan yuzaga chiqadi. Ko‘pincha kasallik bir necha oy o‘tgach pediatr ko‘rigida bolaning jismoniy rivojlanishdan ortda qolishi bilan aniqlanadi. DSPning asosiy klinik belgisi bolalarning harakat doirasidagi yangi harakatlarni bajara olmasligi va yangi qobiliyatlarni o‘zlashtira olmaslidir. Serebral falaj kuzatiladigan bola boshini uzoq muddat tutib tura olmaydi, o‘yinchoqlar uni qiziqtirmaydi, boshini bura olmaydi, qo‘l va oyoqlarini erkin harakatlantira olmaydi, o‘yinchoqlarni ushlay olmaydi. Bolani qo‘lga olib oyoqlarini yerga tirasa oyoq kafti bilan to‘liq turmaydi, oyoqlarining uchigina yerga tegib turadi.DSP bir tomonlama yoki ikki tomonlama parezlar bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Agar gapirish markazi zararlangan bo‘lsa bolada nutq buzilishi belgilari (dizartriya) kuzatiladi. Yutqin va hiqildoq faoliyatini boshqaradigan markazlar zararlanadigan bo‘lsa yutinish bilan bog‘liq muammolar (disfagiya) yuzaga chiqadi. DSPning barcha ko‘rinishlarida mushaklar tonusi oshib ketadi. Oyoq-qo‘llarda harakat chegaralanadi, bo‘g‘imlarda harakat yo‘qoladi, natijada oyoq qo‘llar

mushaklari atrofiyaga uchraydi va ular tanaga nisbatan nomutanosib holatga keladi. Bolalar serebral falaji bilan kasallangan bemorlarda o‘ziga xos tana tuzilishidagi deformatsiyalar (skolioz, ko‘krak qafasi deformatsiyalari) yuzaga chiqadi. Motorika buzilishi va skelet deformatsiyalari bolalarda surunkali og‘riq sindromiga sabab bo‘ladi. Og‘riq bo‘yin, yelka, belda paydo bo‘ladi.

Giperkinetik shakldagi bolalar serebral falaji to‘satdan yuzaga chiquvchi belgilar: boshning qayta qayta bir tomonga burilishi, yuzda kirmasa, ko‘rinishida bo‘lishi, qaltirash, bir xil harakatni takrorlash kabilar namoyon bo‘ladi. Bolalar serebral falajida yuqoridagi belgilardan tashqari g‘ilaylik, oshqozon-ichak tizimidagi o‘zgarishlar, nafas olish bilan bog‘liq muammolar, peshob tuta olmaslik kabi patologiyalar ham qo‘shilishi mumkin. Tahminan 20-40 % DSP epilepsiylar bilan kechadi. 60 %ga yaqin DSP bolalarda ko‘rish qobiliyati bilan bog‘liq muammolar mavjud. Karlik yoki eshitish qobiliyatining pasayishi ham ayrim bemorlarda uchrab turadi. Aqliy jihatdan bolalarda rivojlanishdan ortda qolish, qabul qilish va diqqatni bir joyga jamlash, o‘qishda kamchiliklar va xulq atvordagi noodatiy holatlar yaqqol namoyon bo‘lishi ham mumkin. DSP kasalligi surunkali bo‘lishiga qaramay kasallik kuchayib bormaydi, aksincha bola o‘sib rivojlanishi bilan sekin asta belgilar kamayib boradi. Bemorlar ikkilamchi kasalliklar natijasida qiynalishlari mumkin, masalan: epilepsiya, insult, bosh miyaga qon quyilishi yoki juda o‘gir kechuvchi somatik kasalliklar.

#### Tarixi.

«Serebral falajlik» atamasi XIX asrning o‘rtalarida paydo bo‘ldi. O‘sha davrda ingliz xirurgi Litll bolalarda uchraydigan spastik falajliklarni xirurgik yo‘llar bilan korreksiya qilishga uringan. Serebral falajliklarning asosiy sababchisi tug‘ruq paytida ro‘y beradigan bosh miya jarohatlaridir, deb yozgan edi Litll. U o‘z ishlarida «serebral falajlik», «spastik diplegiya» atamalarini ko‘p keltirib o‘tadi. Keyinchalik mutaxassislar bolalarda zo‘raymaydigan va deyarli turg‘un bo‘lgan falajliklarni «Bolalar serebral falajligi» degan umumiyy nom bilan atay boshlashdi. Spastik diplegiya esa Litll kasalligi nomini oldi.

Bolalar serebral falajligi – ko‘p etiologiyali kasallik. Homiladorlik paytida onadagi mavjud turli infeksiya (SMV, toksoplazmoz va h.k.) va kasalliklar (toksikoz, og‘ir anemiya, surunkali intoksikatsiya, endokrinopatiyalar), zararli odatlar (chekish, ichish, giyohvandlik), yo‘ldosh kasalliklari, ona-bola rezus-omilining to‘g‘ri kelmasligi, embriotoksik ta’sirga ega farmakologik dorilarni iste’mol qilish BSF rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Ushbu umumiyy holatlar kuzatilganda birinchi navbatda mutahassis larga murojaat qilish lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.<https://lex.uz/ru/docs/-5>
- 2.<https://avitsenna.uz/bolalar-serebral-falaji-dsp-qanday-kasallik679836>
- 3.Maxsus pedagogika (Darslik). -T.: «Fan va texnologiya», 2014, 368 bet.